

NAMANGANDA “QULOQ”QA TORTISH VA QATAG’ON
QILISHNING FOJIALI OQIBATLARI

Isoqov Doniyorbek Ulug’bek o’g’li
*Namangan viloyati Chortoq tumanidagi
53-sonli ayrim fanlar chuqur o’qitiladigan
sinflari mavjud bo’lgan umumiy o’rta
ta’lim maktabi tarix fani o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Mustaqillik yillarida sovetlarning O’rta Osiyo, jumladan, O’zbekistondagi kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun qilish siyosati tarixining ayrim masalalari Namangan misolida ushbu tezisda bayon qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun qilish, “Uchlik”, OGPU, diniy*

Mustaqillik yillarida sovetlarning O’rta Osiyo, jumladan, O’zbekistondagi kollektivlashtirish, quloqlashtirish va surgun qilish siyosati tarixining ayrim masalalari yangicha metodologiya, konsepsiya, istiqloq mafkurasi ruhida talqin etilgan asarlar, arxiv hujjatlari va materiallari to’plamlari [1.] yuzaga keldi, dissertatsiyalar [2.] himoya qilindi, ko’plab ilmiy maqolalar e’lon qilindi. Biroq bu ilmiy yo’nalishning qator masalalari xaligacha o’zining to’laqonli yechimini topgan emas. Masalani keng va batafsil ochib berish uchun hozirgacha e’lon etilmay, “maxfiy” tamg’asi ostida saqlab kelingan arxiv hujjatlarini ilmiy iste’molga kiritish muhim ahamiyatga egadir. Sovet rejimining O’zbekistonda dehqonlarga qarshi olib borgan qatag’on siyosati va uning fojiali oqibatlarini to’laroq ochib berish uchun O’zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati arxivi, Prezident Devoni arxivi, Respublika Ichki ishlar vazirligi arxivlarida saqlanayotgan hujjat va materiallarni o’rganish zarur. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik xizmati arxivida 180 jilddan iborat SSSR OGPU (Davlat siyosiy boshqarma tashkiloti)ning O’rta Osiyodagi vakolatli vakilligi huzurida tashkil etilgan “Uchlik” materiallari saqlanmoqda.

VKP(b) MKning 1930-yil 30-yanvardagi “Yoppasiga kollektivlashtirilayotgan rayonlarda quloq xo’jaliklarini tugatish bo’yicha tadbirlar to’g’risida”gi qarorida mamlakatdagi dehqon



xo'jaliklarining 3-5 foizi, ya'ni ulardan 800-1200 ming kishini quloq qilish belgilangan. Vaholanki, 1929-yil kuzidayoq dehqon xo'jaliklarining 2,3 foizi (600 mingga yaqin) dehqon xo'jaligi quloqlashtirildi. Quloqqa tortilganlardan 60 ming kishining konsentratsion lagerlarga yuborish, ularning bir qismiga “qatag'onning oliy jazosi – otuvni qo'llash” mumkinligi ko'rsatilgan. 150 ming oilani Sibir, Ural va Qozog'istonning aholi siyrak rayonlariga surgun qilish, qolgan qismini o'zlari yashab turgan okruglarning kolxozlardan tashqaridagi dehqonchilik uchun noqulay yerlarda tashkil etilgan maxsus posyolkalarga ko'chirish ko'zlangan. Quloqlashtirish butun sobiq ittifoq, uning barcha hududlari, milliy rayonlarida, jumladan, O'rta Osiyoda ham amalga oshirilgan [3, 54-bet].

1930-yilning boshlarida respublikadagi ayrim rayonlar yop-panasiga jamoalashtirish rayonlari deb e'lon qilindi. Hozirgi Naman-gan viloyati hududiga kiruvchi Chortoq, Kosonsoy, Norin, Chust, Pop rayonlari ham ushbu ro'y-xatdan o'rin oldi. Aynan shu hududlarda “Kollektivlashtirish va quloq” qilishga qarshi ommaviy chiqishlar bo'lib o'tgan [4, 141-144 betlar]. VKP(b) MK Siyosiy Byurosining 1930-yil 20-fevraldagi “Kollektivlashtirish va iqtisodiy quloq milliy rayonlarda quloqlarga qarshi kurash to'g'risida” qarorida belgilangan 15-martgacha konslagerlarga yuboriladiganlardan 1-toifaga mansub faol quloqlarning taxminiy miqdorini aniqlash vazifasidan kelib chiqib, O'rta Osiyodan 1300 kishi, shulardan O'zbekiston bo'yicha 1000 kishi konslager qamog'iga olinadigan bo'ldi. Toshkentdan markaz Moskvaga 1930-yil 19-martda tezkor yuborilgan ma'lumotda Respublika bo'yicha jami 1195 kishi boy quloq sifatida qamoqqa olingani xabar qilingan. Ravshanki, Markazdan berilgan direktiva O'zbekistonda ortig'i bilan bajarilgan.

Qarshimizda OGPUning O'rta Osiyodagi doimiy vakolatxonasi huzuridagi uchlikning 1930-yil 27-oktabrdagi 103-sonli Kengash bayonnomasi. Kengash uchlik raisi Mironov, a'zolari Berman, Babkeevich, O'zSSR davlat prokurori, OGPU organlari ustidan nazorat olib boruvchi Sarichyev va kotib Kovachlar ishtirokida o'tgan. Kun tartibida 5054-sonli ayblov xulosasini muhokama qilish masalasi qo'yilgan. Ayblov xulosasiga ko'ra asosan, uchlik qarori bilan 92 nafar [5, 177-bet]. mahbusning bir qismi otuvga, bir qismi esa qamoq jazosiga hukm etilgan, ayrimlarigina qamoqdan ozod qilingan. Mana ulardan ayrimlari:



1. Nosirxonto'ra Said Kamolxonto'rayev – 56 yoshda, millati tojik, boy, xo'jaligi yer-suv islohoti davrida tugatilgan, taniqli mudarris, fevral inqilobidan oktabr inqilobigacha Namangan shahar Dumasi raisi [6, 37-bet]. aksilinqilobiy Qo'qon muxtoriyatida vazir, Namangan diniy boshqarmasining sobiq raisi, 1925-yildan 1928-yilgacha sovetlarga qarshi faoliyati uchun surgunda bo'lgan; 2.Otantoy Sotilganov – 56 yoshda, qirg'iz, boy-chorvador, xo'jaligi yer-suv islohoti davrida tugatilgan; 3.Mulla Samiulla Safiullayev – 54 yoshda, tatar, sobiq yer egasi va savdogar, yer-suv islohoti davrida xo'jaligi tugatilgan; 4. Gumbin Ignatiy Mateevich – 38 yoshda, tatar, sobiq ofitser, oqlarda bufet ijarachisi bo'lgan; 5.Eshon Dadaxon Nosirxonov – 24 yoshda, tojik, Nosirxonto'raning o'g'li; 6.Mansurboy Sherg'oziyev – 63 yoshda, o'zbek, masjid oqsoqoli, aniq mashg'uloti yo'q; 7.Qurbonboy Yusufboyev – 60 yoshda, o'zbek, dehqon va dallol; 8.Xo'jaxon Qanoatov – 37 yoshda, o'zbek, eshon o'g'li, o'zi imom; 9.Abdujudid Mamatshoyev – 32 yoshda, o'zbek, o'rta hol; 10.Mulla Fozil Bobomammedov – 28 yoshda, o'zbek, o'rtahol, Nosirxonto'raning shogirdi, “Kalta ko'ylak” a'zosi; 11.Xo'jamberdi Madaminov – 56 yoshda, o'zbek, bog'bon; 12.Madibroxim O'rinboyev – 70 yoshda, qipchoq, boy, yer-suv islohotida mulki qirqilgan; 13. Karimboy Saidboyev – 41 yoshda, o'zbek, dehqon, kambag'al; 14.Mulla No'mon Karimov – 33 yoshda, o'zbek, kosib to'quvchi, Nosirxonto'raning shogirdi; 15.Mulla Isroil Sodiqboyev – 20 yoshda, o'zbek, ruhoniy oiladan, o'rtahol; 16. Mullasobid Toshmatov – 36 yoshda, o'zbek, o'ziga to'q, “Kalta ko'ylak” diniy maktabida o'qigan; 17.Muhammad Zokir Shukurboyev – 35 yoshda, o'zbek, o'rtahol dehqon, sobiq bosmachi; 18.Hasanxon Nosirxonto'rayev – 18 yoshda, tojik, Nosirxonto'raning o'g'li, mashg'uloti aniq emas, madrasada o'qigan; 19.Xo'jaxon Mulla Karimboev – 44 yoshda, o'zbek, “Kalta ko'ylak” diniy xodimining o'g'li; 20.Rahmatulla Abduvahobov – 45 yoshda, o'zbek, kosib; 21.Asqarali Abduvaxobov – 38 yoshda, o'zbek, mashg'uloti aniq emas; 22.Abdurahmon Topildiboyev – 21 yoshda, o'zbek, dehqonchilik va ipak to'qish bilan shug'ullanadi, kambag'al, “Kalta ko'ylak” diniy maktabida o'qigan; 23.Muhammadjon Qanoatshoyev – 39 yoshda, o'zbek, kosib; 24.Mullaturdi Ashurmatov – 40 yoshda, o'zbek, ruhoniy va dehqon; 25.To'raboy Qodirqulov – 38 yoshda, o'zbek, kambag'al; 26.Toshimboy Hakimboyev – 35 yoshda, o'zbek, o'rtahol, “Kalta ko'ylak”da o'qigan; 27.Mamarasul To'raboyev – 27 yoshda, o'zbek, o'rtahol; 28.Jo'raboy



Qori Mirishoqov – 39 yoshda, o‘zbek, savdogar; 29.To‘xtasin Boltaboyev – 27 yoshda, o‘zbek, boy, yer-suv islohotida mulki qir qilgan; 30.Abduxalil Abdurazzoqov – 42 yoshda, o‘zbek, sobiq bosmachi, o‘rtahol; 31.Muhammadsodiq Mahmudboyev – 30 yoshda, o‘zbek, savdogar; 32.Mulajo‘raboy Bochchaboyev – 32 yoshda, o‘zbek, mashg‘uloti aniq emas, “Kalta ko‘ylak”da o‘qigan; 33.Otamirza Abdurahimov – 26 yoshda, o‘zbek, kambag‘al; 34.Hasanboy Rustamov – 42 yoshda, qipchoq, boyning o‘g‘li; 35.Madad Boboqulov – 48 yoshda, qipchoq, o‘ziga to‘q dehqon; 36.Imomali Qosimboyev – 30 yoshda, qipchoq, o‘rtahol; 37.Rahimboy O‘rinboyev – 41 yoshda, qipchoq, boyning o‘g‘li, sobiq bosmachi, o‘rtahol; 38.Muhammadali Saidmurodov – 20 yoshda, qipchoq, o‘ziga to‘q dehqon; 39.Ahmadali Saidmurodov – 26 yoshda, qipchoq, o‘ziga to‘q dehqon; 40.Domullajon Abdulqosimov – 29 yoshda, qipchoq, o‘rtahol; 41.Dadajon Abulqosimov – 22 yoshda, qipchoq, kambag‘al; 42.Mulla Usmon Dadaboyev – 28 yoshda, o‘zbek, imom; 43.Mulla Alixon Azizboyev – 25 yoshda, o‘zbek, o‘rtahol, diniy maktabda o‘qigan; 44.Mulla Abdulqodir Mamadkarimov – 32 yoshda, o‘zbek, madrasada o‘qigan, duradgor; 45.Abdullaqori Kattashayxov – 25 yoshda, o‘zbek, madrasa mullavachchasi; 46.Payziboy Usmonov – 29 yoshda, o‘zbek, masjid so‘fisi va imomi; 47.Isroilhoji Sarimsoqhojiyev – 41 yoshda, tojik, imom; 48.Mulla Tojiboy Yo‘ldoshev – 36 yoshda, tojik, Nosirxonto‘raning shogirdi, ruhoni; 49.Avliyoxon Abdullaxo‘jayev – 35 yoshda, o‘zbek, ruhoni, imomning o‘g‘li; 50.Abdulahad Nishonboyev – 25 yoshda, o‘zbek, mulla; 51.Hamraxo‘ja Mallaxo‘jayev – 48 yoshda, o‘zbek, boy, mulki yer-suv islohotida qir qilgan. 52.Abbosxonqori Azizxo‘jaev – 26 yoshda, tojik, madrasada o‘qigan, qori; 53.Saydulla Maqsudov – 25 yoshda, tojik, ruhoni o‘g‘li, Nosirxonto‘raning qaynisi, etikdo‘z; 54.Xolmirza Umrzoqov – 47 yoshda, qipchoq, boy, mulki yer-suv islohotida qir qilgan; 55.Mulla Abdulla Madkarimov – 33 yoshda, o‘zbek, sobiq imom, o‘rtahol; 56.Xudaynazar Umrzoqov – 37 yoshda, qipchoq, diniy ma‘lumotli, xizmatchi; 57.Abdug‘ani Sodiqboyev – 24 yoshda, qirg‘iz, boyning o‘g‘li; 58.Saidboy Ustaboyev – 40 yoshda, o‘zbek, o‘rtahol; 59.Nurmuhammad Usmonboyev – 23 yoshda, o‘zbek, kambag‘al; 60.Isoqjon Aliboyev – 24 yoshda, o‘zbek, kosib; 61.Dadaxo‘ja Oppoqxo‘jayev – 60 yoshda, tojik, mayda savdogar; 62.Madibrohim Barotboev – 45 yoshda, tojik, mudarris, imom; 63.Mulla Abdulhayqori Dadaboyev – 25 yoshda, tojik, diniy faoliyat bilan shug‘ullanadi; 64.Imomxon Mo‘minxo‘jaev – 21 yoshda, tojik, kambag‘al;



65. Nuriddinqori Asadullayev – 42 yoshda, tojik, diniy maktabda o'qigan, qori; 66. Barot Uzoqboyev – 29 yoshda, tojik, “Rivojiya” ipakchilik qustar sanoat birlashmasi a'zosi [7, 54-58 betlar].

Hujjatdan ma'lum bo'lyaptiki, jazoga tortilganlarning aksariyati dehqonlar emas, balki ziyoli qatlamga mansub. Ular ziyoli sifatida el-yurtda obro' topgan, milliy va diniy qadriyatlar, erk va hurriyat uchun o'z imkoniyatlari darajasida faoliyat ko'rsatayotgan yurtdoshlar edi. Ular qattol tuzumning, sovet rejimining qurbonlari bo'lgan. Nohaq qatag'on etilgan yurtdoshlar xotirasini muqaddas bilish bilan butun xalqni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda muxim ahamiyat kasb etadiki, ular haqidagi bor haqiqatni tiklash biz tarixchilar zimmasidagi burchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929-1955гг. Документы и материалы. I-II-III том. Под ред. Д.А.Алимовой. Составители: Р.Т.Шамсутдинов, Б.М.Расулов.- Т.: Шарк, 2006; Шамсутдинов Р., Юсупов Э., Хошимов С., Дўсматов Э. Среднеазиатский кишлак в годы большого террора. Документы и материалы. - Андижан, 2007.

2. Абдуллаев М.Ф. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари (1925-1945 йиллар): Тарих фанлари номз...диссертацияси. – Т., 2002; Акбарова М. Ўрта Осиёдан Қозоғистонга сургун қилинган кулоқлар, уларнинг ҳаёти ва тақдири.(1929-1956 йиллар):Тарих фанлари номз...диссертацияси.- Т., 2010; Қурбонов Х. Ўзбекистонда зўрлик билан ўтказилган коллективлаштириш ва унинг оқибатлари. 1929-1938 йиллар. (ҳозирги Самарқанд, Навоий, Бухоро вилоятлари мисолида): Тарих фанлари номз...диссертацияси.-Т.: 2010; Мамажонов А. Коллективлаштириш жараёнида Ўзбекистон қишлоқларидан Шимолий Кавказга сургун қилинганлар: Тарих фанлари номз...диссертацияси.-Андижон. 2005

3. Шамсутдинов Р. Холмирзаев Э, “Қулоқ”қа тортиш ва қатағон қилишнинг фожиаларига доир (Наманган вилояти мисолида) // Илмий хабарнома, (Андижон), 2014, №4



4. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т.: Шарқ, 2003.

5. Шамсутдинов Р.Т Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун. (Ўрта Осиё республикалари мисолида) Т.: Шарқ, 2003.

6. Шамсутдинов Р.Т. Тарихий меросимизга бир назар. Андижон. 1994.

7. Шамсутдинов Р. Холмирзаев Э, “Қулоқ”қа тортиш ва қатағон қилишнинг фожиаларига доир (Наманган вилояти мисолида) // Илмий хабарнома, (Андижон), 2014, №4.

